

**QISHLOQ XO'JALIGI KARTALARIDA FOYDALANILADIGAN SHARTLI
BELGILAR TIZIMI VA KARTOGRAFIK TASVIRLASH USULLARI**

Egamova Dilchehra Adizovna

TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tayanch doktoranti

Shovqiyev Ahad Mamadaliyevich

*"O`zdavyerloyiha"DILI "Navilyerloyiha" bo`linmasi direktori, "O`zdavyerloyiha"DILI
mustaqil izlanuvchisi*

Boboqulov Baxtiyor Kamol o`g`li

*"O`zdavyerloyiha"DILI "Navilyerloyiha" bo`linmasi yetakchi muhandisi,
"O`zdavyerloyiha"DILI mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya: *Respublikamiz qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlarini kartografik jihatdan baholashda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, jumladan geoaxborot tizimlari yordamida qishloq xo'jaligi kartalarini yaratishga bag'ishlangan ilmiy ishlar unchalik ko'p emas. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini kartalashtirish yoki unga ta'sir qiluvchi tabiiy omillarni geografik jihatdan tadqiq qilish bo'yicha ma'lum darajada ilmiy izlanishlar olib borilgan.*

Kalit so'zlar: *Qishloq xo'jaligi kartalari, elektron kartalar, qishloq xo'jaligi tarmoqlari, infratuzilmalar, veb kartalar, kartogramma, kartodiagramma, miqdorli rang, sifatli rang, areal, shartli belgilar sifat va miqdor ko'rsatkichlari.*

Qishloq xo'jaligi asosiy tarmog'i bo'lgan dehqonchilik va chorvachilik kartalari tarkibida yuqoridagi texnik hamda moddiy texnik xizmat ko'rsatish elementlarini tasvirlash orqali hududdagi qishloq xo'jaligi bilan bog'liq agrotexnik tadbirlarni samarali tashkil etish, o'simliklar yoki chorva mollarining kasallanishini hududlar bo'ylab tarqalishi va uning oldini olish tadbirlarini rejalashtirish, qishloq xo'jaligi texnikalariga sifatli texnik xizmat ko'rsatish, quduqlarni doimiy monitoring qilish natijasida chorva mollari tomonidan suv tanqisligi yuzaga keladigan hududlarda yaylov o'simliklarining payhon qilinishining oldi olinadi.

Kartografik tasvirlash usullarni tanlashning asosiy omillari kartaning masshtabi, maqsadi hamda kartalashtirilayotgan ob'ektlar va birliklarning mazmuniga bog'liq bo'ladi

Kartadan olinadigan ma'lumotlar orqali kartalashtirilgan hududda amaliy va tajribaga oid masalalarni yechishga imkon beradi. Ushbu ma'lumotlar kartaning mazmunini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Kartadagi ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatiga qarab, tasvirlash usullari tanlanadi. Qishloq xo'jaligi kartalaridagi voqea-hodisalarning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini tasvirlashda asosan quyidagi kartografik tasvirlash usullari qo'llaniladi: nuqtalar, belgilar, sifatli va miqdorli rang, kartodiagramm, kartogramma usullari.

Kartalashtirilayotgan hududda har xil sifat va miqdor ko'rsatkichiga ega bo'lgan ob'ektlarni tasirlashda nuqtalar usulidan foydalaniladi.

Nuqtalar usulini samarali tanlash, tasvirlanayotgan hudud chegarasida ob'ekt yoki voqea va hodisani tarqalishi to'g'risida ko'rgazmali tasavvur beradi. Nuqtaning "vazni" miqdorni, rangi esa, sifat xususiyatini aniqlashga yordam beradi

Belgilar usuli alohida tasvirlash usuli sifatida odatda karta masshtabida ifodalanmaydigan ob'ektlar joylashgan o'rnini ko'rsatish uchun va umuman manzilli joylashgan hodisalarni

tasvirlash uchun qo'llaniladi Qishloq xo'jaligi infratuzilma ob'ektlarini tasvirlashda ushbu usuldan foydalanish maqsadga muvofiq.

Miqdorli rang usuli bilan kartalashtirilayotgan hudud chegarasida tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning ma'lum miqdor ko'rsatkichi bo'yicha tarkibiy qismlarga bo'linib, ularning har birini maydonli grafik vositalar orqali qamrab olish bilan hodisaning miqdor ko'rsatkichlari tasvirlanadi. Hududlardagi dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish va qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarining miqdor ko'rsatkichlarini hudud bo'ylab tasvirlanishida miqdorli rang usuli qo'llaniladi.

Ma'muriy-hududiy birlik doirasida kartada voqea-hodisalarning o'rtacha intensivligini har xil qalinlikdagi ranglar bilan yoki turli zichlikdagi shtrix chiziqlarda tasvirlash uchun kartogramma usulidan foydalaniladi. Ushbu usulning samarali jihatlaridan biri - uning ko'rgazmali va o'qishga osonligidir. Qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi hamda yer maydoniga nisbatan to'g'ri keladigan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini, chorva mollari zichligini tasvirlashda kartogramma usulidan foydalanish samarali natija beradi.

Kartodiagramma usulida qishloq xo'jaligi ekin yerlarining turi, chorva mollari soni, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini, umumiy holda qishloq xo'jaligining iqtisodiy ko'rsatkichlarini tasvirlashda foydalaniladi. Miqdor va sifat ko'rsatkichlarini tasvirlashda turli xildagi diagrammalar hamda geometrik belgilardan foydalaniladi.

Qishloq xo'jaligini rivojlanishining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini kartografik usullardan foydalanib tasvirlangandan so'ng, kartografik shartli belgilar ishlab chiqiladi. Ushbu shartli belgilar bir-biridan farqli, o'zaro uyg'unlashgan, oson o'qiladigan, kartaning mazmuniga, masshtabiga va foydalanish uslubiga muvofiq bo'lishi zarur.

Kartografik shartli belgilarni ishlab chiqish orqali kartalashtirilayotgan ob'ektlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni inobatga olib, shartli belgilar kartaning umumiy va xususiy ko'rsatkichlarini tasvirlashga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi kartografiyasida kartalarni rangli jihozlashning qonuniyatlari ishlab chiqilgan. Ulardan asosiylari quyidagilar: qishloq xo'jaligiga oid iqtisodiy kartalarni rangli jihozlashda ana'naviy usullarni saqlash; miqdor ko'rsatkichi hajmining oshib borishini ranglarning "to'qlashib" borishi bilan tasvirlash; ma'lum tarmoqlarda tasvirlashda qo'llaniladigan tasvirlash usullar uchun tanlangan ranglarni bir xilligini ta'minlash; mazmunan yaqin tarmoq yoki tarkibiy tuzilmalarni bir-biriga yaqin bo'lgan ranglar bilan tasvirlashdir

Qishloq xo'jaligi kartalarini jihozlashda kartografik tasvirlash usullaridan foydalanish, ularning mazmunini ochishga, ko'rgazmaligini va o'qishni osonlashtirishiga yordam beradi. Yakuniy jarayonda kartaning mazmuni elementlari va shartli belgilar tizimi jihozlanadi. Majmuaviy kartalarning mazmun elementlari miqdorli va sifatli rang usullari orqali beriladi. Ushbu usullar orqali majmuaviy kartaning eng asosiy elementlari tasvirlanadi.

Qishloq xo'jaligi kartalarini tuzishda kartografik tasvirlash usullarini tanlashda quyidagi vazifalarni bajarish mumkin: ularning kartada yaxshi uyg'unlashishi; voqea va hodisalarning geografik o'rni va sifat-miqdor ko'rsatkichlarini aniqlik darajasini kuchaytirish; sifat va miqdor ko'rsatkichlarini tasvirlash; kartaning mazmunini to'liq ochib berishi va ko'rgazmaliligini ta'minlash.

Jahonda va uning turli mintaqalarida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni zamonaviy geoaxborot tizim va texnologiyalari asosida elektron, interaktiv va veb-kartalarni yaratish, vizuallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasini o'rganish, tahlil qilishda kartografik ta'minlash uslublaridan foydalanish bo'yicha tadqiqotlarning olib borilishi muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada, jumladan, jahonning AQSh, Vetnam, Ukraina, Xitoy, Germaniya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog'liq qishloq xo'jaligi, tabiiy va ijtimoiy - iqtisodiy muammolarni o'rganishda ham qishloq xo'jaligi elektron kartalari yordamida hudud to'g'risida ishonchli ma'lumotlar olishni ta'minlash hozirgi zamon kartografiyasining dolzarb ilmiy - amaliy masalalari sifatida alohida e'tiborni talab qiladi.

Jahon kartografiyasida qishloq xo'jaligi tarmoqlarini kartalashtirishda zamonaviy geoaxborot tizim va texnologiyalaridan foydalanib, ma'lumotlarni to'plash, saqlash, tahlil qilish, qayta ishlash, baholash hamda geoma'lumotlar bazasini yaratish asosida ma'lumotlarni vizuallashtirish hamda elektron kartalarni tuzishning samarali uslublarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan maqsadli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, jumladan mamlakatimizning tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini inobatga olgan holda qishloq xo'jaligi sohasini tavsiflovchi elektron kartalarini tuzish uslubini takomillashtirishda geoaxborot tizim va kartografik ta'minlash usullarining zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar respublikamiz iqtisodiyotini va xususan qishloq xo'jaligini rivojlantirish bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlar o'z aksini topgan. Shulardan kelib chiqib, mamlakatimizning tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish hamda mavjud tabiiy resurs va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini inobatga olgan holda, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining hududiy takibini takomillashtirish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Bundan tashqari 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida, jumladan «...qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish» vazifasi belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, xususan hududlarning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish salohiyati va infratuzilma ob'ektlarini kartografik ta'minlash va geoaxborot tizim va texnologiyalari (GAT) asosida mavzuli elektron kartalarni tuzish uslubini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adizovna, E. D., & Majiddinovich, U. U. (2023). GERMANIYA KADASTR TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 358-362.

2. Уегамова, Д. А., Бобожонов, С. У., & Мухаматов, К. М. (2014). ПОВЫШЕНИЕ РАЦИОНАЛЬНОГО И ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ. The Way of Science, 57.

3. Adizovna, E. D., & Majiddinovich, U. U. (2023). O'ZBEKISTONDA MULKNI HIMOYA QILISH HAMDA XUSUSIY MULKCHILIK SHAKLLARINI YANADA

TAKOMILLASHTISH. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 2(15), 83-89.

4. Эгамова, Дильчехра, and Н. К. Ахадова. "МЕТОДИКА И ТЕХНОЛОГИЯ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНОЙ СТРУКТУРЫ." Центральноазиатский журнал образования и инноваций 2.3 (2023): 53-57.

5. Adizovna, E. D. (2023). SYSTEM OF LAND STRUCTURE DESIGN IN UZBEKISTAN AND ITS MAIN CONTENT. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 155-161.

6. Egamova, D., & Ahadova, N. (2023). O'ZBEKISTONDA YER TUZISHNI LOYIHALASH TIZIMI VA UNING ASOSIY MAZMUNI. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(3), 47-52.

7. Xasanov, F., Egamova, D., & Asatov, J. (2023). EKOLOGIK BERQARORLIK SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI YERLARINI LOYIHALASHNING SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(3), 138-143.

8. Egamova, D., Nurullayev, S., & Ahadova, N. (2023). XUSUSIY MULK SIFATIDA YERDAN FOYDALANISH MEKANIZMI SHAKLLANISHING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 1(3), 18-23.

9. Adizovna, E. D., & Nematovich, S. J. (2022). ADVANTAGES OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN GROUND MONITORING. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 1-4

10. Adizovna, E. D. (2023). YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI BOSHQARISH MASALALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 173-178.

11. Adizovna, E. D. (2023). DISTINCTIVE FEATURES OF THE GERMAN CADASTRAL SYSTEM. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(20), 178-182.

12. Эгамова, Д. (2023). Социально-экономическое значение приватизации земельных участков. Основные направления стратегии земельной реформы: проблемы и решения, 1(1), 101-108.